


Ijtimoiy-tarixiy, ilmiy va ommabop jurnal



ISBN-2181-0281  
 2181 0282

# SOHQIRON YULDUZI



Соҳибқирон юлдузи

№4 (54) 2023 йил

*"Bizkim-mulki Turon, amiri Turkistonmiz, bizkim - millatlarning eng qadimi va eng ulug'i Turkning bosh bo'g'inimiz!"*

Sohibqiron Amir Temur





# SOHIBQIRON YULDUZI

ижтимоий-тарихий, илмий ва оммабоп журнал

## та^рир ^айъати

### АЪЗОЛАРИ:

академик Акмал Саидов  
академик Анатолий Сагдуллаев  
академик Дилором Юсупова  
Сирожиддин Сайид  
проф. Абдура^им Эркаев  
проф. Ҳа^рамон Ражабов  
проф. Юлдуз Эргашева  
проф. Ба^одир Эшов  
филол.ф.д. Нафас Шодмонов  
Тўл^ин Ҳайт  
т.ф.д. Г.Муҳинова  
проф. Шокир Гаффоров  
филол.ф.д. Ҳужамурод Жабборов  
филол.ф.д. Дамин Тураев  
т.ф.д. Акрам Хасанов  
проф.Камолиддин Ганиев  
т.ф.н.доц. Матлуба Тураёва  
т.ф.д.Фахриддин Ра^монов  
т.ф.ф.д. Раъно Тухтёева

### Бош му^аррир:

Очил Бўриев

### Нашр учун масъуллар:

Равшан Тұхтамишев

Ил^ом Тогаев

### Са^ифаловчи:

Ба^одир Мусаев

### МУАССИС:

SOHIBQIRON SHULASI M.CH.J.

Ёаш^адарё вилоят матбуот ва ахборот бош^армасида 2012 йил 12 марта 14-076 разами билан рўйхатга олинган. Журнал йилда 4 маротаба чоп этилади. Журналдан кўчирма олингандан манба ^айд этилади шарт.

### Манзилимиз:

Ёарши ша^ри, Бунётикор М.Ф.Й.

Муста^иллик кучаси, 10/28-30-үй.

Телефон: 91.466-80-32

Теришга 17.10.2023 йилда берилди.

Босишг 02.11.2023 йилда рухсат

етилди. 02.11.2023 йилда босилди.

Бичимин 70x100 1/16, 21,44 босма табо^.

Адади 50 нусха. Буюртма №271

Журнал «Photo Express» ишлаб чи^ариш корхонаси босмахонасида чоп этилди.

### Босмахона манзили:

Ёарши ша^ри Муста^иллик шо^ кучаси,22-үй.

### Электрон манзилимиз:

sohibqiron\_jurnali@mail.ru

2023 йил №4 сон (54)

2023-YIL «INSONGA  
E'TIBOR VA SIFATLI  
TA'LIM» YILI



2023 йил «Инсонга эътибор ва  
сифатли таълим йили»

Журнал тани^ли шоир, маънавият жонкуяри (мархум) Ислом Тұхтамишев ташаббуси билан ташкил этилган.

2010 йилдан чоп этилади.



|  |     |
|--|-----|
| Dilafro'z Karimova. SOPOLLI MADANIYATI DAFN MAROSIMLARIDAGI AN'ANA VA YANGILIKLAR.....   | 140 |
| Qahramon Karimov, TURKISTONDA MUSTAMLAKA TARTIBLARINI QOZLIK MAHKAMALARI FAOLIYATI TA'SIRI TARIXIDAN.....                                  | 145 |
| Lola Azimova, XALQ KITOBLARIDA ISLOM TARIXI VOQEALARINING BADIY TALQINI (XVIII-XIX ASARLAR MISOLIDA).....                                  | 152 |
| Munira Xatamova. O'RTA OSIYO MADANIYATI VA SAN'ATIDA SUG'D DEVOR RASMLARINING TUTGAN O'RNI.....  | 156 |
| N.Toshtemirova. O'ZBEKISTONDA ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH TADBIRLARIDA "SOG'LOM AVLOD UCHUN" HAYRIYA FONDINING O'RNI.....          | 167 |
| Muxiddinov Sunnatullo Inoyatovich. MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MAORIF SOHASIDAGI QARASHLARI VA FAOLIYATI.....                                 | 172 |
| Sanabar Djurayeva, O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMING RIV OJLANISHI ...   | 176 |
| S. Davletov, S. Allanazarov, 1920-1924 YILLARDA XORAZMDA XALQ MAORIFINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI MASALALARI.....                           | 185 |
| B.Sh.Mamatqulov. O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT SOHASI KADRLARI TAYYORLASH JARAYONIDAGI ZIDDIYATLI HOLATLAR (1925-1991 yy). .... | 194 |
| Jahongir Turdialev, SUG'DSHUNOSLIK: FAN SIFATIDA VUJUDGA KELISHI VA ILK TADQIQOTCHILARI.....   | 198 |
| O'ktami Abdullayev. O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIKA YO'NALISHI OTMLARIDAGI ISLOHOTLAR.....                                  | 204 |
| Ra'no Xatamova, CHO'PON OTA VA XOJA NURIDDIN ZIYORATGOHLARI.....   | 208 |
| Habibulla Yunusxo'jayev, "IJTIMOIY DAVLAT" TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIYALARI.....  | 212 |
| G'unchaxon Alimova, JAMIYATDA VIJDON ERKINLIGI KATEGORIYASINING ILMY TAHLILI.....  | 217 |
| Zafarjon Nazarov, TURIZMNING RIVOJLANTIRISH BO'YICHA QABUL QILINGAN XALQARO VA HUKUMAT MEYORIY HUJJATLARI.....                             | 222 |
| Alisher Doniyorov. O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA TOLERANTLIK TARIXIY ILDIZLARI.....   | 229 |
| Obidjon Jaynarov, TURKISTONDA AHOLIGA YURIDIK XIZMAT Ko'RSATISH TIZIMI HOLATI (1917-1922 YILLAR).....                                      | 244 |
| Xurshida Yusupova, TOSHKENT VOHASINING O'RTA ASRLAR DAVRI KARVON YO'LLARI.....   | 249 |
| Nodir Karimov. G'ARB TARIXSHUNOSLIGIDA HAKIM TERMIZIYNING YOZMA MEROSIGA MUNOSABAT.....  | 254 |
| Ozodbek Radjabov, YANGI O'ZBEKISTONNING YANGI MARRALARI (TEMIR YO'LLAR SOHASIDAGI BUNYODKORLIKLER MISOLIDA).....                           | 264 |
| Azizov Nuriddin, ZARBLI CHOLG'U ASBOBLARI TARIXI VA TARIXIY AHAMIYATI.....   | 268 |
| Xusniddin Irgashov, SALIB YURISHLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR.....   | 272 |
| Guza Razzakova. XALFACHILIK SAN'ATI TARIXIDAN.....   | 282 |
| Shoira Jumayeva, MARKAZIY OSIYO XALQLARI TURMUSH TARZIDA ZIYORATGOHLARNING O'RNI.....  | 285 |
| A.Pardayev, BITOVIYE USLOVIYA NASELENIYA KASHKADARINSKOGO OAZISA.....  | 290 |
| Dilorom Vasiyeva, OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA MAMLAKATDA AMALGA.....  | 294 |
| O.Bo'riyev, M.Usmonov, "BOBURNOMA"DA ETNOMADANIY QADRIYATLARGA OID TERMINLAR TAVSIFI.....  | 299 |
| Sarvinoz Omonova, O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR SPORTI BO'YICHA KADRLAR TAYYORLASHINI RIV OJLANTIRISH TADBIRLARI.....                         | 304 |
| Umar Ergashev, XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA QASHQADARYO VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI (SAROY ETNONIMI MISOLIDA).....               | 308 |
| Muhabbat Zokirova, NOGIRONLARNING HUQUQLARINI HIMoya QILISHNI TA'MINLASH.....  | 318 |
| K. G'aniyev, O'RTA OSIYO TARIXIY SHAXARLARINING SHAKLLANISHI VA RAVNAQIGA BUYUK IPAK YO'LINING TA'SIRI.....                                | 322 |



JAIQIQOT

# XALFACHILIK SAN'ATI TARIKIDAN

Guzal Razzakova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Kalit so'zlar: xalfa, xalfachilik san'ati, cholg'u, garmonik, san'at, qo'shiq.**

Azaldan Xorazmda san'at ulug'lanib kelingan, lekin xar bir davrning o'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bo'lgan. Tarixga bir nazar tashlaydigan bo'lsak xalfachilik san'ati bilan ayollar shugullanib kelishgan.

Garmonik asbobi Xivaga XIX asrning o'rtalarida Rossiyadan savdogarlar tomonidan olib kelingan. Savdogarlar orasida rus garmonikni chaladiganlari bo'lgan.

Xon saroyida uyushtirilgan bazmda rus savdogarlaridan biri garmonik chalib beradi. Garmon tovushi xonga yoqib qolib, saroy sozandalaridan yangi cholg'u asbobi haqidagi fikrlarini so'raydi. Qo'shiqchilar ham sozning yoqqanligini ta'kidlashadi. Shundan so'ng garmonikni sotib olishini buyuradi. Sozandalardan biri garmonikda Xorazm qo'shiqlarini chalishni mashq qila boshlaydi. Garmonik shu tariqa Xorazm san'atida o'zinig muqim o'rnnini egalladi. Sekin-asta garmonchik sozandalar etishib chiqadi. Shu vaqtarda garmonik "soz" deb yuritilan. Garmonik chaluvchi qo'shiqchilarining ismiga esa "sozchi" so'zi qo'shib aytildi. Xuja sozchi, Sheroyi sozchi, Kurbon sozchi, Madrahim sozchi. Garmonikning ikki pardaligi, ya'nii tug'machiligi va akkordeon pardaligi, ya'nii (pianino) shaklidagisi bo'lgan. Sozning kirib kelishi Xorazm qo'shiqchiligidagi xalfachilikning yuksalishiga imkon beradi. Ayniqsa, garmonik ko'zi ojizlar uchun qo'l keladi, chunki ular sozni barmoq bilan topish, chalish osonroq bo'lgani sababli tezda o'zlashtirib oladilar. Avvallari ayollar piyola, dutor bilar ashula aytishgan, shu sababli xalfa atamasi ishlatilmaydi, ularni "qo'shiqchi ayol" deb yuritishgan.

Qo'shiqchilikka garmonik kirib kelishi bilan qo'shiqchi ayollarga "xalfa" nomi berilgan. Onajon Sobirova xalfa, Onabibi Qori va boshqalar iste'dodli garmonchik bo'lib etishadilarri XX-asrning boshlarida xivalik Shukurjon xalfa (1881-1950), Sharifa xalfa (1900-1972), Joni xalfa (1870-1920), Anash Ma'ram (1882-1918), Bibijon Qosimova xalfa (1875-1920), xonqalik Durdonim Kurbonnazarova xalfa(1881-1948). Xalfa Aytjon Safayeva (1875-1955), Guljon Kori xalfa (1874-1935). Oysha Kulol Iskandarovna xalfa (1880-1949), Yoqut Aytniyazova xalfa (1903-1972) va boshqalarning nomi xalq orasida mashhur bo'lgan.

Xalfachilikka o'zining ulkan hissasini qo'shgan Onabibi Otajonova (Anabiy Qori) 1899-yili hozirgi Xiva tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. 4 yoshida ko'zlar ko'rmay qolgan, Onabibi keyinchalik "Ojiza" taxallusini olgan. Onabibining musiqa, raqsga qiziqlishi 5-6 yoshidanoq namoyon bo'lgan. Uni 9 yoshida Sangar qishlog'ida yashagan Qosim devon va uning qizi Bibijon xalfaga shogirdlikka berishadi. Ojiza 13 yoshga kirguncha g'azal to'qish, aytish, soz chalish, xalq dostonlarini yoddan kuylash san'atini ham egallab oladi.

Ojiza sevgi-muhabbat, mehnat mavzusida juda ko'p she'r va qo'shiqlar yaratadi. Uning "Siz bu gulni qaysi bog'dan oldingiz?", "Targuncha", "Uyalaman",



"Xabar galmish", "Qaydadir bilmam dildorim", "To-o'lguncha seni derman" kabi qo'shiqlari og'izdan og'izga o'tib, san'at shinavandalarini hali-hanuz maftun qilib kelmoqda.

Onabibi Otajonova (Ojiza)ning musiqachilik, qo'shiqchilik san'atiga qo'shgan hissasi, tayyorlagan shogirdlari Xorazm xalfachilik tarixida muhim o'rinn egallaydi. Xonimjon suvchi xalfa Saidahmad qizi "Koron gulik sultanatida xon zulmiga qarshi qalban tug'yon ko'targanlarning biri edi. Yesh Xonimjon Pishkanak qishlog'idagi masjidda o'qib savodini chiqardi. U 1875 yili xivalik Kutlimurod suvchi degan kishiga turmushga chiqadi. Tugma iste'dod sohibi bo'lgan Xonimjon Xonim suvchi taxallusida she'rlar yozgan. Xonimjon suvchining "O'lar bo'ldik bu xonlarning dastidan". "Umring yig'lab o'tgay bevafo zolim", "Naylayin armonli ketdim" kabi she'rlari xalq orasida mashhur bo'lgan. Xonimjon suvchi bir qo'shig'ida xonga bo'lgan nafratini bayon etadi. Buni eshitgan Isfandiyorxon 1916 yili Xonimjon suvchini o'lgiday qilib kaltaklatadi. Xonimjon suvchi kaltak va dag'dag'alardan qo'rqlay xonu beklarni, zolim boylarni qoralab qo'shiqlar to'qib kuylashni davom ettiraveradi.

Mashhur xalfa Onajon Sobirova (Anash chulok) xam xalfa, ham raqqosa bo'lgan. U xon saroyida xizmat kilgan san'atkori edi. Onajon xalfa Sobirova (1885-1952) xivalik ganch ustasi oilasida tarbiyalangan. Onajon avval eski usuldagagi mактабда таълим олди, сунг Xonimjon suvchiga shogird tushadi. U 16 yoshidan xalq qo'shiqlarini mohirlik bilan ijro etibgina qolmay, garmonb chalish, raqsga tushishda ham Xorazmda dong taratadi. Ayniqsa, u xotin-qizlar orasida mashhur bo'lib ketadi.

Onajon xalfanining butun xotin-qizlar orasida buncha shuhrat qozonishidan xavfsiragan kishilar Muhammad Rahimxonga: "Anash xalfa xotin-qizla rimizni buzayotir, u na xayoni biladi, na din-diyonatni biladi, tuyu-tomoshalarda qo'shiq aytib raksga tushadi, garmon chalib boshqa xotin-qizlarni xam kiynatib yuribdi", deb shikoyat qilishadi. Natijada san'atkori tazyiq ostiga olinadi.

O'zbek milliy musiqa san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishini uning dastlabki bosqichlarida, xususan, turli davrlarda xalq tarixida ko'rish mumkin. Mamlakatimizning boshqa xalqlari orasida o'zbek musiqa madaniyati uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi, toki turli milliy ohanglar notalar yoki shunga o'xshash musiqiy belgilari bilan belgilandi. "Xalq musiqasi" tushunchasi "xalq musiqasi" atamalari, xalq ijodiyotining boshqa turlari, masalan, o'ymakorlik (yog'och, bronza va mis o'ymakorligi), kulolchilik, zargarlik buyumlari, zargarlik buyumlari, kashtachilik bilan ifodalanadi.

Mamlakatimiz hayotining turli bosqichlarida uyg'unlik har doim xalq uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. So'nggi yillarda xalq cholg'u asboblarida ijro etish yuqori obro'ga ega bo'ldi. Hozirgi kunda respublikaning barcha musiqa Oliy o'quv yurtlarida xalq cholg'ulari fakultetlari mavjud bo'lib, ularda mahoratni o'rganish, shuningdek, deyarli barcha cholg'u asboblarini chalishni o'rganish mumkin. O'zbek xalq cholg'u asboblarining aksariyati endi nafaqat respublikamizda, balki uning tashqarisida ham mashhur.

#### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. - B. 8. 2.

Imomov Q. Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Xalq poyetik asarlari. - O'qituvchi, 1990.-B. 4. Toshkent:

3. Chistov K. V. Shimoliy rus marsiyalari X IX asr dehqon oilasini o'rganish uchun manba sifatida - Kitobda: Folklor va yetnografiya: Xalq og'zaki ijodining qadimiylar g'oyalalar va marosimlar bilan aloqalari...-S. 131-143; O'sha muallif. Sharqiy slavyan nikoh marosimini o'rganishning tipologik muammolari. Kitobda: Yetnografiyada tipologiya muammolari / SSSR Fanlar akademiyasi, Yetnografiya instituti...-S. 223-230.

4. Putilov, B.N. Rossiya shimolidagi folklor va yetnografiya... 280 p.; O'sha muallif. Xalq og'zaki ijodini qiyosiy-tarixiy o'rganish metodikasi... 244 b.; O'sha muallif. Qahramonlik yeposi va voqelik. - L.: "Nauka", 1988. - 233 b.

5. Chistov K.V. Folklor va yetnografiya // Folklor va yetnografiya. - 4-bet.

6. Tishkov V.A. Rossiyada yetnik millat nazariyasi va siyosati bo'yicha insholar / V.A.Tishkov. M Rus dunyosi, 1997. -532 s; O'sha muallif. O'ziga xoslik va madaniy chegaralar. Possovet davlatlaridagi o'ziga xoslik va mojarolar / V.A. Tishkov.

#### Annotation

Ushbu maqolada xalq cholg'ulari, xususan, garmonik haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xalfa san'ati va ijodi, shuningdek, ular foydalanadigan musiqa asboblari va uslublari haqida fikr bildirildi.

#### Аннотация

В данной статье представлены сведения о народных инструментах, в частности, о гармошке. Даны мнение о халифском искусстве и творчестве, а также о методах и используемых ими музыкальных инструментах.

#### Annotation

This article provides information about folk instruments, in particular, about harmony. An opinion is given on the Khalf Art and creativity, as well as on the methods and musical instruments used by them.